ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O‘ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 97

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma’no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe’llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
«Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi she‘riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O‘G‘LI
Jadid dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR’AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o‘zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA’LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog‘lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Resume. The article reveals the discursive features of forensic medical examination texts, as well as their linguistic characteristics in the field of medical and legal discourse. It also provides information on the institutional, lexical-semantic, syntactic, and pragmatic aspects of these texts and explains their hybrid discursive structure as complex communicative units.

Резюме. В статье раскрываются дискурсивные особенности текстов судебно-медицинской экспертизы, а также их лингвистические характеристики в сфере медицинского и юридического дискурса. Также представлена информация об институциональных, лексико-семантических, синтаксических и прагматических аспектах этих текстов и объясняется их гибридная дискурсивная структура как сложных коммуникативных единиц.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNDA SHARQONA MULOQOT ETIKETI VA NUTQIY STRATEGIYALAR

Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqatgina aloqa vositasi emas, balki millat madaniyati, ruhiyati va tarixini o'zida saqlovchi hamda avloddan-avlodga uzatuvchi jonli xazina sifatida o'rganish yetakchi o'ringa chiqdi. Bu borada lingvokulturologiya sohasi millatning dunyoqarashi tilda qanday aks etishini tadqiq etishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Milliy madaniyat va mentalitetning eng yorqin ko'rinishlaridan biri esa, shubhasiz, – muloqot xulqi va nutqiy etiketdir. Nutqiy etiket har bir xalqning o'ziga xos tarbiyasi, ijtimoiy kelib chiqishi va axloqiy me'yorlarini ifodalaydi. Tarixiy jarayonlarni, xususan, milliy davlatchiligimiz poydevori bo'lgan Amir Temur va temuriylar davri muhitini badiiy gavdalantirishda nutqiy etiket vositalarining o'rni beqiyosdir. Muhammad Alining «Ulug' saltanat»[1] epopeyasi nafaqat tarixiy voqelikni aniq tasvirlagani, balki o'sha davr o'zbekona muloqot xulqining eng nozik qirralarini lisoniy birliklar orqali mahorat bilan ko'rsatib bera olgani bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolada asardagi qahramonlar nutqini lingvokulturologik prizma orqali tahlil qilish, davr muloqot madaniyatining til qatlamlaridagi aksini aniqlash maqsad qilingan.

Nutqiy muloqot madaniyati, muloqot xulqi va nutqiy etiket masalalari zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida, xususan, lingvokulturologiya va pragmalingvistika sohalarining diqqat markazida turadi. Muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-madaniy qiyofasi, milliy mentaliteti va jamiyatdagi mavqeyi uning nutqiy strategiyalarida namoyon bo'ladi.

Xalqaro miqyosda muloqot etiketining umumnazariy asoslari va xushmuomalalik tamoyillari g'arb tilshunoslari J.Lich (J.Leech) hamda P.Braun va S.Levinson (P.Brown, S.Levinson)[2] tadqiqotlarida keng yoritilgan. J.Lich[3] o'zining xushmuomalalik

[1] Muhammad Ali. Ulug' saltanat. – Toshkent: Sharq, 2013. – 450 b.
[2] Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
[3] Leech, J. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.

maksimalarida (kamtarlik, rozilik, xayrixohlik maksimasi) so'zlovchining tinglovchiga nisbatan lisoniy hurmatini saqlashi muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlovchi bosh mezon ekanligini asoslaydi.

Rus tilshunosligida muloqot xulqi va lingvokulturologiyaning nazariy poydevori V.Maslova[1], V.Teliya[2] va N.Formanovskaya kabi olimlar tomonidan yaratilgan. Xususan, N.Formanovskaya[3] nutqiy etiketni *«jamiyat tomonidan belgilangan va barqarorlashgan, muloqotni yo'lga qo'yuvchi lisoniy markerlar tizimi»* sifatida baholaydi va uning milliy-madaniy xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida muloqot xulqi va milliy etiket me'yorlarining tadqiqi professor N.Mahmudov nomi bilan uzviy bog'liq. N.Mahmudov[4] o'zining lingvokulturologik izlanishlarida o'zbekona muloqotning o'ziga xos jihatlari, jumladan, andisha, kattaga hurmat, til cheklovlari (tabu) va evfemizmlarning xalq mentalitetini ochib berishdagi o'rnini mukammal tahlil qilgan. Shuningdek, muloqotning pragmatik va sotsiolingvistik jihatlari M.Hakimov[5], aylanma nutqiy ifodalar (perifrazalar) tizimi A.Mamatov[6], o'zbek muloqot xulqining etnomadaniy xususiyatlari esa R.Rasulov, Sh.Safarov[7] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Badiiy matn, xususan, tarixiy romanlar tilida nutqiy etiket tamoyillarining namoyon bo'lishi o'sha davr ijtimoiy iyerarxiyasini va xalqning o'tmishdagi madaniy qiyofasini tiklashda muhim manba hisoblanadi. Biroq tilshunoslikda Muhammad Alining «Ulug' saltanat» epopeyasi leksikasi, frazeologiyasi va lakunalari alohida o'rganilgan bo'lsa-da, asardagi Amir Temur va temuriylar davri saroy hamda oilaviy muloqot strategiyalari, sharqona andishaning lisoniy in'ikosi tizimli ravishda maxsus lingvokulturologik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Bu esa ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Muhammad Alining «Ulug' saltanat» epopeyasida o'zbekona muloqot xulqi va nutqiy etiket normalarini tadqiq etishda tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasiga xos bo'lgan bir qator zamonaviy usul va metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini til va madaniyat yaxlitligini, lisoniy birliklarning pragmatik vazifalarini tizimli o'rganish tamoyillari tashkil etadi.

Ishda quyidagi ilmiy metodlar majmuyidan foydalanildi:

– *Lingvokulturologik tahlil metodi:* asar matnidagi milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan nutqiy etiket shakllari, murojaat birliklari va evfemizmlarning xalq mentaliteti hamda davr dunyoqarashi bilan bog'liqligini aniqlashda qo'llanildi.

– *Pragmalingvistik va kontekstual tahlil metodi:* qahramonlar o'rtasidagi dialogik nutqda qo'llanilgan nutqiy strategiyalar (kamtarlik, ulug'lash, andisha) va uslublarning muayyan muloqot vaziyatidagi (saroy etiketida, oilaviy muhitda) o'ziga xos pragmatik vazifalarini va so'zlovchi niyatini ochib berish uchun xizmat qiladi.

– *Ta'riflash va sotsiolingvistik guruhlash metodi:* «Ulug' saltanat» romanidan ajratib olingan muloqot xulqiga oid komponentlarni lingvistik jihatdan tavsiflash hamda ularni ijtimoiy muhitiga ko'ra (rasmiy-diplomatik va norasmiy-oilaviy) guruhlarga ajratishda foydalanildi.

Ushbu tadqiqotda o'n bitta konseptual matn namunasi asosida sharqona muloqot etiketining sotsiolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik tabiati o'rganildi. To'plangan empirik materiallar tahlili orqali o'zbek milliy nutqiy strategiyasiga xos bo'lgan andisha, iyerarxik muvozanat va evfemizatsiya qonuniyatlari ilmiy-badiiy jihatdan yoritib berildi.

Evfemizatsiya va ijtimoiy tabu. Sharq madaniyma'rifiy muhitida to'g'ridan-to'g'ri bayon etilishi noqulaylik yoki ruhiy og'riq chaqiradigan voqeliklarni bilvosita ifodalash – diskursiv andishaning bosh mezoni sanaladi. Amir Temur xonadonidagi oilaviy muloqot tizimi buning lisoniy tasdig'idir. Xususan, farzandning xastalik holatini tasvirlashda quruq tibbiy tushunchalar o'rnini *«ichi chiroq yoqsa yorishmasdi»* singari obrazli, ruhiy holatni matnlashgan simvollar egallaydi. Bu o'rinda inson tushkunligi o'zbek dunyoqarashiga xos bo'lgan *«yorug'lik va zulmat»* qarama-qarshiligi asosida, ya'ni ichki olamning qorong'ulashishi tarzidagi madaniy kod bilan ko'rsatilgan.

Muloqotda faol qo'llangan *«farzandi dilbandim»* va *«jigarporam»* kabi birliklar shunchaki munosabat shakli emas, balki sharqona oila falsafasining lisoniy shakllanishidir. Forscha *«dilband»* (qalbi bog'langan) hamda o'zbekona *«jigarpora»* (jigarning bir bo'lagi) metaforalari somatik (tana a'zolariga oid) qadriyat hisoblanib, ona va farzand o'rtasidagi nafaqat biologik, balki chuqur metafizik uzviylikni ifodalaydi. Shunga ko'ra, so'zlovchi voqelikni bayon etishda shunchaki axborot uzatmaydi, balki tinglovchining ruhiy dax-

[1] Maslova V. A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. – 208 s.
[2] Teliya V. N. Pervoocherednie zadachi lingvokulturologii. – Moskva: Nauka, 1996. – 320 s.
[3] Formanovskaya N. I. Rechevoy etiket i kultura obsheniya. – Moskva: Visshaya shkola, 1989. – 159 s
[4] Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – 142 b.
[5] Hakimov M. O'zbek tilshunosligida pragmalingvistika masalalari. – Toshkent: Fan, 2013. – 176 b.
[6] Mamatov A. O'zbek tili perifrazalari tizimi. – Toshkent: Fan, 2009. – 120 b.
[7] Rasulov R., Safarov Sh. Etnomadaniy tilshunoslik va muloqot xulqi xususiyatlari. – Toshkent / Samarqand: SamDU nashri, 2012. – 144 b.

lsizligini asrashga intiladi. Bu esa o'zbek lingvomadaniyatida andisha va etnomadaniy takt (andisha mezoni) naqadar yuqori bo'lganini dalillaydi.

O'lim va yo'qotish semantikasi ijtimoiy tabu sifatida. Har qanday jamiyatda o'lim va yo'qotish fenomenlari ijtimoiy hamda lisoniy tabularni yuzaga keltirishi bilan xarakterlanadi. Sharq madaniy makonida ushbu og'ir voqelik keltiradigan ruhiy zarbni yumshatish uchun pragmatik nutqiy strategiyalardan keng foydalanilgan. Xususan, matndagi *«dunyoning ishi shu ekan-da!»* konstatatsiyasi shunchaki tasalli iborasi emas, balki foniylik falsafasiga tayanuvchi o'zbekona eksiztensial koddir. Bu formula orqali so'zlovchi shaxsiy fojiani borliqning umumiy qonuniyatiga singdirib yuboradi va tinglovchining ruhiy yukini kamaytirishga erishadi.

Shahzoda Jahongir Mirzoning vafotidan so'ng uning farzandiga unvon berilish jarayonida *«yetimlik»* atamasining chetlab o'tilishi ham o'ta nozik etnomadaniy takt samarasidir. Mazkur vaziyatda ijtimoiy tushkunlikni ifodalovchi tushunchalar *«saltanat bog'ining guli»* va *«Hazrat Sohibqiron diydasining nuri»* kabi yuksak poetik evfemizmlar bilan modifikatsiya qilinadi. Bu yerda *«bog'»* (davlat/saltanat) hamda *«nur»* (vorislik/umid) metaforalari faollashib, bolaning jamiyat iyerarxiyasidagi o'rni himoya ostiga olingan. Bunday nutqiy yondashuv sharq davlatchilik etiketi hamda lingvomadaniyatida bolaning ijtimoiy-ruhiy daxlsizligini ta'minlash eng oliy qadriyat bo'lganini ko'rsatadi.

Muloqotda lisoniy hurmat va iyerarxiya. Muhammad Alining «Ulug' saltanat» epopeyasida harbiy-siyosiy va diplomatik muloqot tizimidan tashqari, kundalik oilaviy muloqotda ham g'oyat yuksak sharqona etiket elementlari ko'zga tashlanadi. Muallif qahramonlar tilidagi lisoniy birliklar orqali o'zbek xalqiga xos andisha va lisoniy nomus tushunchalarini mahorat bilan ochib bergan. Ayniqsa, hukmdorlar va saroy a'yonlari o'rtasidagi rasmiy muloqotlarda pragmatik strategiyalarning qo'llanilishi, nafaqat subyektning ijtimoiy maqomini, balki o'sha davr davlatchilik madaniyatining naqadar yuqori bo'lganini ham isbotlaydi. Bu esa badiiy matn lingvokulturologiyasini yanada chuqurroq o'rganish zaruriyatini belgilaydi.

Sharq xalqlari etnomadaniy muloqot tizimida lisoniy hurmat va ijtimoiy hokimiyat tamoyillari nutqiy birliklarning tanlanishini belgilovchi yetakchi omil sanaladi. Qutlug' Turkon-oqaning o'z farzandidek bo'lgan Jahongir Mirzo bilan muloqotida oilaviy munosabatlar va siyosiy iyerarxiya (hukmdor-fuqaro) o'rtasidagi nozik muvozanat ko'zga tashlanadi. Ammaning nufuzini *«so'zi tosh bosadigan enasining zimmasiga yuklamoqchi»* iborasi orqali ifodalanishi o'zbekona oila modelida keksa avlod, xususan, Amir Temurga ham onadek aziz bo'lgan opa so'zining ijtimoiy-siyosiy salmog'ini, uning o'ziga xos hakamlik maqomini ko'rsatadi. Bu yerda *«tosh bosish»* metaforasi so'zning shunchaki vaznini emas, balki qarorlarning qat'iyati va muqaddasligini anglatuvchi an'anaviy o'lchov simvolidir.

Shu bilan birga, badiiy diskursda qo'llangan *«Bo'yingizdan aylanayin, bo'yingizdan!»* kabi emotsional-ekspressiv olqishlar o'zbek lingvomadaniyatidagi qurbon bo'lish, fido bo'lish shakliga tayanadi va ijtimoiy iyerarxiya keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan rasmiy masofani onalik mehri bilan muvozanatga soladi.

Oilaviy-sulolaviy muloqotda ham yuksak etiket saqlanadi. Sharq davlatchilik va oila an'analarida sulolaviy muloqot tizimi o'ta qat'iy, shakllangan ijtimoiy-madaniy etiket me'yorlariga bo'ysunadi. Bu tizimda oilaviy munosabatlar va siyosiy maqomlar kesishuvi o'ziga xos lisoniy muvozanatni yuzaga keltirgan. Farzandning otaga murojaatida aks etgan; *«Vaalaykum assalom! O'zingizga ham muborak bo'lg'ay, shahzodam!»* replikasi shunchaki rasmiy muloqot shakli emas, balki g'ayritabiiy tuyilgan ijtimoiy hurmat shaklidir. Bu o'rinda otaning o'z farzandiga *«shahzodam»* deya ijtimoiy mavqe orqali murojaat qilishi va unga javoban yuksak hurmat ko'rsatishi sharqona saltanat diskursda shaxsiy emotsiyalarning davlat boshqaruviga bo'ysundirilganini anglatadi. Ya'ni muloqot subyektlari bir-birlarini oilaviy mavqe (ota-bola) qolipida emas, balki saltanat taqdirini belgilovchi siyosiy institutlar sifatida idrok etadi va hurmat ko'rsatish jarayoni o'zaro simmetriklik kasb etadi.

Badiiy diskursdagi *«Qulluq! Qulluq!»* shaklidagi takroriy replikalar esa sharqona muloqotni davom ettiruvchi muloqotning yaqqol etnomadaniy namunasidir. O'zbek lingvomadaniyatida minnatdorchilik bildirishning ushbu an'anaviy lisoniy kodi iyerarxik masofani, itoatkorlik va sadoqat qadriyatlarini mustahkamlaydi. Mazkur replikaning takroriy shaklda kelishi esa hissiy munosabatning lisoniy kuchliligini ta'minlab, so'zlovchining suhbatdosh ijtimoiy maqomiga bo'lgan cheksiz ehtiromini ifodalaydi. Shunga ko'ra, sulolaviy muloqotda nutqiy birliklar shunchaki axborot almashishga emas, balki mavjud ijtimoiy va siyosiy hokimiyatning lisoniy daxlsizligini saqlashga xizmat qiladi.

Rasmiy maktub uslubida muloqot etiketi oliy nuqtaga chiqadi. Epistolyar diskursda rasmiy muloqot etiketining eng oliy mezonlari namoyon bo'lib, u diplomatik nutqning strategik muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi. Matnda keltirilgan *«Malik Husayn hazratlarining halol va oqil ekanlariga sira shubhamiz yo'qdur...»* replikasi lingvistik pragmatika hamda muloqot strategiyasidagi «maqtov maksimasi» (approbasyon) talablariga to'liq mos keladi. Bir-

oq sharqona rasmiy maktubchilik an'anasida ushbu aksioma shunchaki suhbatdoshga xushomad qilish emas, balki g'arazsizlik va mutlaq ishonch muhitini yaratishga qaratilgan diplomatik usul hisoblanadi.

Bu yerda subyektning ijobiy ijtimoiy qiyofasini asrash hamda qarama-qarshiliksiz muloqot maydonini shakllantirish bosh maqsad qilib olingan. Maktubda qo'llangan «halol» va «oqil» tushunchalari islomiy-falsafiy konseptual maydonga mansub bo'lib, subyektning nafaqat dunyoviy intellektini, balki uning ma'naviy-axloqiy daxlsizligini ham kafolatlaydi. Shunga ko'ra, mazkur lisoniy konstruksiya muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi rasmiy masofani saqlagan holda, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarning oldini oluvchi va pragmatik hamkorlikni ta'minlovchi lisoniy himoya filtri vazifasini bajaradi.

Gender muloqot etiketi. Gender muloqot diskursiv tahlilida madaniy me'yorlar va ijtimoiy rollarning o'zaro dinamikasini ochib beruvchi eng faol maydonlardan biridir. Saroymulkxonim va Amir Temur munosabatida ustuvor simvolika va muloqot etiketining o'zaro vazifaviy sintezi kuzatiladi. Matndagi *«to'nning uzunligidan oyoqlari ko'rinmas...»* tasviri shunchaki tashqi ko'rinish bayoni emas, balki o'zbek etnomadaniyatida ayol latofati va ijtimoiy maqomini belgilovchi vizual etiket elementidir. Ushbu vizual kod an'anaviy jamoatchilik ongida ayol kishining iffati, andishasi va yuksak tabaqaga mansubligini lisoniy matnlashgan modelidir.

Hukmdorning *«Malikani bizning g'arib chodirimizga olib kirsunlar!»* deya murojaat qilishi g'arb pragmatikasidagi «kamtarlik maksimasi» doirasiga tushsa-da, sharqona etnomadaniy muhitda kamtarinlik sifatining bir pog'ona yuqori shakli bo'lib, yuksak ehtirom etikasini, ya'ni o'z hukmronlik qudratini ayol sha'ni va nufuzi oldida lisoniy pasaytirish (kamtarlik) strategiyasini namoyon etadi.

Saroymulkxonimning og'ir inqirozli vaziyatlarda eriga tasalli berish nutqi esa o'zining konseptual chuqurligi bilan ajralib turadi. Uning *«Amir Sohibqiron hazratlari... nuri diydamiz shirin donasini, birinchi nabiramizni... O'z qo'limizda... Ko'z oldimizda...»* tarzidagi nutqdagi to'xtam va uzilishlarga boy replikasi gender muloqotning psixolingvistik qirralarini ko'rsatadi. Bu yerda bir tomondan ayollarga xos andisha va ruhiy titroq verbalizatsiya qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan, motam diskursidagi og'ir ruhiy yukni er-xotin sifatida birga taqsimlash, ya'ni suhbatdoshni strategik qo'llab-quvvatlash funksiyasi yetakchilik qiladi. Mazkur nutqiy uslub oilaviy uzvlarni saqlash va eng og'ir dramatik vaziyatda ham sulolaviy hokimiyatni ma'naviy jihatdan barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Harbiy-siyosiy kengashlardan keyingi muloqot ritual fotiha va duolar. Sharqona harbiy-siyosiy diskursning o'ziga xos pragmatik xususiyati shundaki, rasmiy majlis va kengashlar faqat qaror qabul qilish bilan yakunlanmaydi, balki muloqot mantiqan fotiha va duolar marosimi orqali yopiladi. Matnda keltirilgan *«Ilohi, o'zi qo'llasun!»*, *«G'anim yuzini teskari etsun!»*, *«Tangri ko'mak bersun!»*, *«Xudo yor! Xudo yor!»* kabi pragmatik birliklar shunchaki an'anaviy nutqiy yakun emas, balki qabul qilingan siyosiy-harbiy qarorlarni ma'naviy-madaniy jihatdan qonuniylashtirish mexanizmidir.

O'zbek lingvomadaniyatida harbiy harakatlar oldidan ilohiy kuchga suyanish va undan madad so'rash shaklining qo'llanishi so'zlovchi va tinglovchilar zimmasidagi ijtimoiy-siyosiy mas'uliyatni metafizik darajaga ko'taradi. Mazkur duolarda faollashgan «g'anim» (dushman) hamda «ko'mak/yor» (ilohiy himoya) ramzlarining uyg'unlashuvi muloqot ishtirokchilarida psixologik daxldorlik va umummilliy birdamlik hissini shakllantiradi. Replika tarkibidagi *«Xudo yor!»* birligining takrorga uchrashi esa nutqiy aktning ta'sir quvvatini oshirib, yakuniy qaror atrofida lisoniy va ruhiy birlashishni ta'minlaydi. Shunga ko'ra, marosim birliklari diskursning pragmatik muvozanatini yakunlovchi va uning sotsial-psixologik qat'iyatini kafolatlovchi eng muhim etnomadaniy marker vazifasini o'taydi.

Insoniy fazilatlar va xatti-harakatlarni baholashda milliy etiket. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini aksiologik nuqtayi nazardan tavsiflashda milliy etiket shartlari yetakchi mezon hisoblanadi. Matnda keltirilgan *«Yaxshilikning ibtidosi sharmdur»* aforistik strukturasi o'zbek lingvomadaniyatining konseptual asosi bo'lgan «andisha» va «uyat» tushunchalarini borliq falsafasiga oid darajaga ko'taradi. Mazkur maksimada sharm shunchaki axloqiy mezon emas, balki shaxs muloqot tizimi va hayotiy strategiyasining bosh boshqaruvchi filtri – etnik mentalitetning tayanch kodi sifatida belgilangan.

Ikkinchi tomondan, jasorat va qahramonlik kabi ijobiy etnik sifatlarni ulug'lashda qo'llangan *«Alpomish yanglig'»* qiyosiy konstruksiyasi sof etnolingvistik etalon hisoblanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi epik diskursiga mansub bo'lgan ushbu pretsedent birlik shaxs xarakterini tasvirlashda shunchaki metafora vazifasini bajarmaydi. U milliy ong ostida shakllangan mukammal qahramon timsolini faollashtiradi va lisoniy subyektning jamiyat oldidagi ijtimoiy salmog'ini eng oliy darajaga ko'taradi.

Yuqorida amalga oshirilgan lingvomadaniy va pragmatik tahlillar natijasiga tayanib, o'zbek muloqot tizimi o'ziga xos konseptual, iyerarxik va etnomadaniy qonuniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Mazkur qonuniyatlar doirasida quyidagi sharqona

muloqot etiketlari va diskursiv strategiyalar tizimini umumlashtirish mumkin:

Pragmatik interpretatsiya: Sharqona muloqot tizimida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot uzatishdan ko'ra, ko'chma va bilvositaviy maqsadlar ustunlik qiladi. Bu esa nutq tinglovchidan yuqori darajadagi lingvistik va madaniy kompetensiyani talab qiladi.

Madaniy barqarorlik: Tahlil qilingan leksik va frazeologik birliklar (olqishlar, duolar, evfemizmlar) o'zbek xalqining milliy mentalitetini va ijtimoiy qadriyatlarini asrlar davomida o'zgartirmasdan saqlab kelayotgan lingvokulturemalardir.

Strategik funksionallik: Nutqiy etiket shunchaki madaniyat belgisi emas, balki davlat boshqaruvi, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi universal regulyativ mexanizm vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Alining «Ulug' saltanat» epopeyasi asosida olib borilgan tadqiqot sharqona muloqot etiketining o'ziga xos sotsiolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik qonuniyatlarini ochib beradi. Mazkur diskursda sof axborot uzatishga qaraganda, suhbatdoshlar o'rtasida ijtimoiy masofani belgilash hamda iyerarxik muvozanatni saqlash funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Milliy nutqiy strategiyaning o'zagini tashkil qiluvchi andisha va kamtarlik maksimasi muloqot ishtirokchilarining bir-biriga bo'lgan yuksak ehtiromini ifodalaydi. Jamiyatdagi og'ir, noxush yoki tabu hisoblangan voqeliklarni bevosita emas, balki metaforik evfemizmlar orqali uzatish tizimi tinglovchini ruhiy jarohatlardan asrashga xizmat qiladi. Matnlarda faol qo'llanilgan duo, olqish va oq fotiha kabi lisoniy vositalar asrlar davomida o'zgarmasdan kelayotgan barqaror lingvokulturemalar hisoblanadi. Umuman olganda, badiiy diskursda aks etgan ushbu nutqiy taktikalar o'zbek xalqining yuksak muloqot madaniyati va boy lisoniy imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Rezyume. Maqolada Muhammad Alining «Ulug' saltanat» epopeyasi misolida badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar masalalari yoritilgan. Muallif o'zbek milliy mentalitetini aks ettiruvchi lisoniy hurmat, andisha va ijtimoiy iyerarxiya markerlarini tahlil qilgan. Pragmatik va lingvokulturologik tahlillar asosida qahramonlarning muloqot xulqi xususiyatlari ochib berilgan.

Резюме. В статье рассматриваются восточный речевой этикет и речевые стратегии в художественном тексте на примере эпопеи Мухаммада Али «Великое царство». Автор анализирует языковые маркеры вежливости, уважения и социальной иерархии, отражающие узбекский национальный менталитет. На основе прагматического и лингвокультурологического анализа раскрываются особенности коммуникативного поведения героев.

Resume. The article examines Eastern speech etiquette and speech strategies in a literary text based on Muhammad Ali's epic «The Great Kingdom». The author analyzes linguistic markers of politeness, respect, and social hierarchy that reflect the Uzbek national mentality. Based on pragmatic and linguacultural analysis, the features of the communicative behavior of the characters are revealed.